

Jadidlar izidan-1

1. Kim Samarqandda Bebbudiy tashkil etgan **"Hurriyat"** gazetasida muharrirlik (1917-1918 yillarda chop etilgan 26—85-sonlar) qilgan?

- A) Abdulla Avloniy
- B) Abdurauf Fitrat
- C) G'ulom Zafariy
- D) Munavvar qori Abdurashidxonov

2. *"Hozir maktablarda milliy ruh qolmadi. Bu masalada hech qanday ish qilinmayapti. Agar ahvol shunday davom etaversa, o'zbeklarda milliy ruh yo qolib ketadi"* deb kim ta'kidlagan?(66-bet)

- A) Mahmudxo'ja Behbudiy
- B) Abdulhamid Cho'lpon
- C) Munavvar qori Abdurashidxonov
- D) Abdulla Avloniy

3. Kim yozma nutq o'stirishday nihoyatda murakkab va mas'uli- yatli masalaga jiddiy yondashdi va darsligida o'quvchilar xat yoki maqola yozayotgan vaqt- larida nimalarga ahamiyat berishlari zarudigini 18 moddada ko'rsatib berdi? (38-bet)

- A) Mahmudxo'ja Behbudiy
- B) Abdulhamid Cho'lpon
- C) Munavvar qori Abdurashidxonov
- D) Abdulla Avloniy

4. Kim sharq tillari bilan bir qatorda, G'arb tillarini ham bilish zarur deb hisobladi va Arabistonda fransuz tili- ni, Hindistonda ingliz tilini, shu bilan birga, eng qadimiy finikiy, yahudiy, suryoniy, yunon yozuvlarini o'rgandi? (15-bet)

- A) G'ulom Zafariy
- B) Abdurauf Fitrat
- C) Is'hoqxon To'ra Ibrat
- D) Mahmudxo'ja Behbudiy

5. Kim to'plangan materiallardan bir qismini Masbriq Yunusov (Elbek) biian birgalik- da **"El ashulalari"** nomi ostida 1925-yili nashr etishadi? (129-bet)

- A) G'ulom Zafariy
- B) Abdurauf Fitrat
- C) Is'hoqxon Ibrat
- D) Mahmudxo'ja Behbudiy

6. Fitratning qaysi maqolasida *"Chig'atoy gurungi"*ning **"Imlo to'dasi"**ni dasturiy yo'nalishi belgilab berilgan? (70-bet)

- A) "murosa shevasi" maqolasi
- B) "Tilimiz" maqolasi
- C) "Tilimizning adabiyligi" maqolasi
- D) "O'zbek tili qoidalari to'g'rusida bir tajriba. Birinchi kitob: Sarf" asari

7. Kim 1917-yil Fevral voqealaridan keyin *"Yashasin xalq jumhuriyati!"* shiori ostida **"Turon"** gazetasini chiqardi? (8-bet)

- A) Mahmudxo'ja Behbudiy
- B) Abdulhamid Cho'lpon
- C) Munavvar qori Abdurashidxonov
- D) Abdulla Avloniy

8. **a)** kim "barmoq" ning afzalliklarini nazariy jihatdan asoslagan bo'lsa, **(b)** yana kim "Go'zal"ga o'xshash asarlari bilan barmoqda ham chinakamiga go'zal she'rlar yozish mumkinligini ko'rsatib berdi? (84-bet)

- A) a- Cho'lpon, b-Ibrat
- B) a- Fitrat, b- Cho'lpon
- C) a- G'ulom Zafariy, b- Is'hoqxon Ibrat
- D) a- Cho'lpon, b-Abdulla Qodiriy

9. Kim do'st-u hammaslamlari bilan 1909-yilda **"Ko'mak"** xayriya jamiyatini tashkil etib, muruvvatli boylarning moddiy yordami asosida millat farzandlarini taraqqiy etgan mamlakatlarga o'qishga yuborilishiga rahnamolik qildi? (83-bet)

- A) Mahmudxo'ja Behbudiy
- B) Abdulhamid Cho'lpon
- C) Munavvar qori Abdurashidxonov
- D) Abdulla Avloniy

10. Nemis olimasi professor **Ingeborg Baidauf** ta'kidlashicha, kimni Gasprinskiyning "musulmon jamiyati ijti-hod eshiklarini lang ochib, yaxshi-lik tomon yuz tutadi, hozirda hukm surib turgan bid'at, xurofotdan xalos bo'ladi" degan fikrlarini jon-dildan ma'qullar, o'zi ham shu fikrda bo'lgan deb aytadi? (71-bet)

- A) Mahmudxo'ja Behbudiy
- B) Abdulhamid Cho'lpon
- C) Munavvar qori Abdurashidxonov
- D) Abdulla Avloniy